

VI. TRANSPORT

Mustaqillik yillarida transport va kommunikatsiya tizimini strategik rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda yaratilgan samarali transport tizimi tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va boshqa mamlakatlar bilan integratsiyalashuv omilidir.

Yuk tashish. 2023 yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 69,0 mln.tonna yuk tashilgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 102,0 foizni tashkil qildi.

Yuk aylanmasi barcha transpor turlari tomonidan 2 358,5 mln.tn.km.ni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil qildi.

Yuk tashish va yuk aylanmasi transport turlari bo'yicha quyidagicha ifodalanadi:

Transport turlari bo'yicha yuk tashish va yuk aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>2023 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan, foizda</i>
<i>Tashilgan yuk, mln. tn</i>	69,0	102,0
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	69,0	102,0
Yuk aylanmasi, mln. tn-km	2 358,5	100,7
<i>shu jumladan:</i>		
avtomobil transportida	2 358,5	100,7

Yakka tartibdagi tadbirkorlarning avtomobil transportidagi yuk aylanmasi 2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan 103,0 foizga o'sdi va 1 075,5 mln. tn-km. ni tashkil qildi.

Buxoro viloyatining tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yuk bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahar (20 376,5 ming tonna) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori tonnani Romitan (7 681,5 ming tonna), Qorako'l (4 518,9 ming tonna), Qorovulbozor (5 418,2 ming tonna) va G'ijduvon (5 602,4 ming tonna) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar kesimida yuk tashish, ming tonna
(2023 yil yanvar–dekabr)

	ming tonna	2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan, foizda	jamiga nisbatan ulushi, foizda
Viloyat jami	69 037,9	102,0	100,0
Buxoro sh.	20 376,5	103,5	29,5
Kogon sh.	3 999,0	97,0	5,8
<i>tumanlar</i>			
Olot	2 408,6	101,2	3,6
Buxoro	4 068,8	101,5	5,9
Vobkent	2 759,7	102,6	4,1
G'ijduvon	5 602,4	102,1	8,1
Kogon	3 256,5	101,1	4,7
Qorako'l	4 518,9	102,1	6,5
Qorovulbozor	5 418,2	105,5	7,8
Peshko'	3 829,2	102,1	5,5
Romitan	7 681,5	103,0	11,1
Jondor	2 576,4	102,2	3,7
Shofirkon	2 542,2	91,6	3,7

Buxoro viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy holati

Ko'rsatilgan yuk tashishda eng kichik tonna quyidagi hududlar Shofirkon (2 542,2 ming tonna) va Olot (2 408,6 ming tonna) hissasiga to'g'ri keldi.

Tashilgan yukning umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida (2023 yil yanvar-dekabr)



Hududlar bo'yicha tashilgan yukning yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro (29,5 foiz) shahar egalladi. Shu bilan birga Romitan (11,1 foiz) va G'ijduvon (8,1 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yuk aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni G‘ijduvon tumani (272 244,4 ming tonna-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan Qorovulbozor tumanida (488 994,1 ming tonna-km) va Buxoro (394 122,5 ming tonna-km) shahrida kuzatildi.

Hududlar kesimida yuk aylanmasi, ming tonna-km

	<i>ming tonna-km</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	2 358 526,3	100,7	100,0
Buxoro sh.	394 122,5	104,5	16,7
Kogon sh.	165 562,5	100,0	7,0
<i>tumanlar</i>			
Olot	44 181,7	104,0	1,9
Buxoro	193 830,9	103,4	8,2
Vobkent	119 998,5	103,8	5,2
G‘ijduvon	272 244,4	104,0	11,5
Kogon	173 144,4	103,5	7,3
Qorako‘l	62 071,6	102,6	2,6
Qorovulbozor	488 994,1	97,2	20,7
Peshko‘	51 282,4	104,8	2,2
Romitan	189 895,2	104,6	8,1
Jondor	116 484,5	103,2	4,9
Shofirkon	86 713,6	73,1	3,7

Ko'rsatilgan yuk aylanmasidagi eng kichik tonna-km quyidagi Peshko' (51 282,4 ming tonna-km), Olot (44 181,7 ming tonna-km) va Qorako'l (62 071,6 ming tonna-km) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

**Yuk aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,
foiz hisobida (2023 yil yanvar-dekabr)**



Hududlar bo'yicha yuk aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Qorovulbozor (20,7 foiz) tumanri egalladi. Shu bilan birga Buxoro shahri (16,7 foiz), G'ijduvon (11,5 foiz) va Buxoro (8,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.

Yo'lovchi tashish. 2023 yil yanvar-dekabr oylarida barcha transport turlari tomonidan 292,3 mln. kishi tashilgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi. Yo'lovchi tashish aylanmasi ushbu davrda 101,5 foizga teng bo'lib, 10 127,1 mln. yo'lovchi-km. ni tashkil qildi.

Transport turlari bo'yicha yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati

	<i>2023 yil yanvar-dekabr</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan, foizda</i>
Transportda tashilgan yo'lovchilar, mln.kishi	292,3	100,7
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	292,3	100,7
Yo'lovchi aylanmasi, mln. yo'lovchi-km	10 127,1	101,5
<i>shu jumladan: avtomobil transportida</i>	10 127,1	101,5

Jami avtomobil transportidagi yo'lovchi aylanmasi 2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan 101,5 foizni va 10 127,1 mln. yo'lovchi-km.ni tashkil qildi. Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida yakka tartibdagi tadbirkorlar yo'lovchi aylanmasining ulushi 87,9 foizni tashkil etdi.


Viloyatning tuman, shaharlar bo'yicha tashilgan yo'lovchi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (80 405,9 ming kishi) egalladi. Shu bilan birga, eng yuqori ko'rsatkich bilan G'ijduvon (38 595,6 ming kishi) tumani, Buxoro (27 084,7 ming kishi) va Kogon (22 926,4 ming kishi) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi tashish, ming kishi
(2023 yil yanvar–dekabr)

	<i>ming kishi</i>	<i>2022 yil yanvar-dekabrga nisbatan foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	292 348,8	100,7	100,0
Buxoro sh.	80 405,9	100,1	27,5
Kogon sh.	10 955,7	101,8	3,7
<i>tumanlar</i>			
Olot	11 156,4	101,7	3,9
Buxoro	27 084,7	101,2	9,3
Vobkent	12 092,1	101,0	4,1
G‘ijduvon	38 595,6	100,5	13,2
Kogon	22 926,4	100,3	7,8
Qorako‘l	9 890,2	100,9	3,4
Qorovulbozor	17 975,2	101,1	6,2
Peshko‘	4 746,6	100,4	1,6
Romitan	19 277,2	101,5	6,6
Jondor	20 443,8	100,3	7,0
Shofirkon	16 799,0	100,9	5,7

Transportda tashilgan yo‘lovchilar soni bo‘yicha eng kichik ko‘rsatilgan quyidagi hududlar Peshko‘ (4 746,6 ming kishi), Qorako‘l (9 890,2 ming kishi) tumanlari va Kogon shahri (10 955,7 ming kishi) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Tashilgan yo‘lovchining umumiy hajmida hududlarning ulushi, foiz hisobida
(2023 yil yanvar-dekabr)



Hududlar bo‘yicha tashilgan yo‘lovchining yuqori ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinni Buxoro (27,5 foiz) shahri egalladi. Shu bilan birga G‘ijduvon (13,2 foiz), Buxoro (9,3 foiz) va Kogon (7,8 foiz) tumanlarida kuzatildi.


Viloyatning yo‘lovchi aylanmasi hajmida yetakchi o‘rinni Buxoro shahri (2 415 744,9 ming yo‘lovchi-km) egalladi. Shu bilan birga eng yuqori ko‘rsatkich bilan G‘ijduvon (1 380 871,3 ming yo‘lovchi-km), Kogon (797 517,6 ming yo‘lovchi-km) va Buxoro (1 049 422,4 ming yo‘lovchi-km) tumanlarida kuzatildi.

Hududlar kesimida yo‘lovchi aylanmasi, ming yo‘lovchi-km

	<i>ming yo‘lovchi-km</i>	<i>2022 yil yanvar- dekabrga nisbatan, foizda</i>	<i>jamiga nisbatan ulushi, foizda</i>
Viloyat jami	10 127 114,8	101,5	100,0
Buxoro sh.	2 415 744,9	102,0	23,8
Kogon sh.	310 317,4	100,4	3,1
<i>tumanlar</i>			
Olot	344 437,7	101,3	3,4
Buxoro	1 049 422,4	100,5	10,4
Vobkent	679 842,9	100,5	6,7
G‘ijduvon	1 380 871,3	101,6	13,6
Kogon	797 517,6	101,7	7,9
Qorako‘l	377 548,7	101,2	3,7
Qorovulbozor	694 712,1	101,6	6,9
Peshko‘	58 869,4	101,3	0,6
Romitan	686 803,2	101,9	6,8
Jondor	731 535,4	102,2	7,2
Shofirkon	599 491,8	101,3	5,9


Ko‘rsatilgan yo‘lovchi aylanmasidagi eng kichik yo‘lovchi-km quyidagi hududlar Peshko‘ (58 869,4 ming yo‘lovchi-km), Olot (344 437,7 ming yo‘lovchi-km) tumanlari va Kogon shahri (310 317,4 ming yo‘lovchi-km) hissasiga to‘g‘ri keldi.

**Yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida hududlarning ulushi,
foiz hisobida
(2023 yil yanvar-dekabr)**



Hududlar bo'yicha yo'lovchi aylanmasining yuqori ulushi bo'yicha yetakchi o'rinni Buxoro shahri (23,8 foiz) egalladi. Shu bilan birga G'ijduvon (13,6 foiz), Buxoro (10,4 foiz), Kogon (7,9 foiz) va Jondor (7,2 foiz) tumanlarida kuzatildi.

**Transport turlari bo'yicha yuk tashish, yuk aylanmasi,
yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi
(2023 yil yanvar-dekabr)**



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Umumiy foydalanishdagi avtomobil transporti – aholini va iqtisodiyotni barcha tarmoqlarining yo'lovchilar, bagajlar va yuklar, shu jumladan, pochталarni avtomobillarda tashishga bo'lgan ehtiyojlarini tijorat asosida ta'minlovchi transport.

Avtotransport vositalari – yo'lovchilar, bagajlar, yuklar tashishga hamda maxsus ishlarni bajarishga mo'ljallangan avtomobillar, shatakchi-avtomobillar, tirkama va yarim tirkamalar.

Yo'lovchi avtomobili – o'zining tuzilishi va jihozlanishi jihatidan yo'lovchilar va bagajlarni tashishga mo'ljallangan, zarur qulaylik va xavfsizlik bilan ta'minlangan avtomobil.

Yuk avtomobili – yuklarni tashishga mo'ljallangan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi; yuk avtotransporti vositalari foydalanish xarakteri va konstruktiv xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumiy va ixtisoslashtirilgan vositalarga bo'linadi.

Avtobus, mikroavtobus – yo'lovchilarni tashishga mo'ljallangan va haydovchi o'rnini hisobga olmaganda sakkiztadan ortiq o'tirish o'rindig'iga ega bo'lgan, qattiq ramali mexanik yo'l transporti vositasi.

Yengil avtomobil – haydovchi o'rnini hisobga olmaganda, sig'imi sakkiz kishigacha bo'lgan yo'lovchi avtomobili. Yengil avtomobillar soniga pochta tashishga mo'ljallangan, sanitariya va boshqa maxsus yengil avtomobillar qo'shilmaydi.

Tashilgan yuklar (yuk tashish hajmi) – yuk avtomobillarida, shu jumladan avtotirkamalarda, tashilgan yuklar miqdori har bir qatnov uchun yukning tara yoki konteynerlar og'irligini hisobga olgan holdagi haqiqiy og'irligi bo'yicha aniqlanadi (tonnada o'lchanadi). Tashilgan yuk hajmini avtomobilning texnik tavsifnomasida ko'rsatilgan yuk ko'tarish qobiliyati bo'yicha aniqlash, faqatgina tashilgan yukning haqiqiy og'irligi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lmagan hollardagina amalga oshirilishi mumkin.

Yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi tonna-kilometr hisoblanadi. Transportning yuk aylanmasi tashilayotgan yukning har bir jo'natmasi og'irligini uni tashish masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

Tashilgan yo'lovchilar – ma'lum vaqt davomida avtomobil vositalarida turli qatnov turlari bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni (statistik kuzatuv birligi bo'lib yo'lovchiqatnovi hisoblanadi).

Yo'lovchi aylanmasi – transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. Qatnov turlari va boshqa belgilar bo'yicha alohida hisoblanadi.